

## SOVET DAVRI TARIXSHUNOSLIGINING OCHILMAGAN HAQIQATLARI: TARIXIY XOTIRA VA HAQIQAT TALASHUVI

To‘xtaboyev Samandar Sherzod o‘g‘li

Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti,

Tarix yo‘nalishi 402-guruh talabasi

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada Sovet davrida shakllangan tarixshunoslikning mafkuraviy yo‘nalishlari, tarixiy voqealarning biryoqlama yoritilishi, siyosiy buyurtmalar asosida amalga oshirilgan tarixiy soxtalashtirishlar tahlil qilinadi. Maqolada mustaqillikdan so‘ng tarix fanida yuzaga kelgan yangi imkoniyatlar va haqiqatni tiklash zarurati asoslاب beriladi.

**Kirish .** Sovet davri — XX asrning katta qismini o‘z ichiga olgan, ko‘plab ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarga boy bo‘lgan murakkab tarixiy davrdir. Ushbu davr tarixshunosligi uzoq yillar davomida yagona mafkuraviy yondashuv asosida shakllangan bo‘lib, tarixiy haqiqatlarning noto‘liq yoki biryoqlama yoritilishiga sabab bo‘lgan. Bugungi kunda, mustaqil tarixshunosligimiz Sovet tarixshunosligining ichki ziddiyatlari va yashirin haqiqatlarini ochib berish bilan shug‘ullanmoqda. Tarix — bu nafaqat o‘tmishni o‘rganish, balki xalq xotirasining ifodasidir. Afsuski, tarix doimo haqiqatni aks ettira olmaydi, ayniqsa u mafkuraviy doiralarda shakllantirilgan bo‘lsa. Sovet davrida yaratilgan tarixshunoslik shunday bir shakldagi tarixdirki, unda ko‘p hollarda real voqealar emas, siyosiy buyurtmalar asosidagi “sifatli” yolg‘onlar hukmronlik qilgan. Bugungi kunda tarixiy haqiqatni qayta tiklash — ilmiy va axloqiy burchimizdir.

Sovet tarixshunosligi tarixiy voqealarni sinfiy kurash, kommunistik mafkura va partiya manfaatlari asosida talqin qilgan. Bu yondashuv natijasida tarix voqealarning haqiqiy mohiyatidan uzoqlashgan. Misol uchun, Turkiston mustaqilligi uchun kurashgan jadidlar harakati “kontrrevolyutsion kuchlar” sifatida talqin qilingan. Ularning milliy uyg‘onishdagi roli esa deyarli butunlay inkor etilgan. Sovet tarixshunosligining eng og‘riqli va hanuz to‘liq o‘rganilmagan sahifalaridan biri — bu

siyosiy qatag‘onlar tarixidir. 1937–1938-yillardagi “qatag‘on” davrida minglab ziyolilar, tarixchilar, yozuvchilar va oddiy fuqaro qamalgani, o‘ldirilgani haqida faqat mustaqillikdan so‘nggina ochiq gapirish boshlandi. Ammo bu davrning asl miqyosi va jabrlanuvchilarning to‘liq ro‘yxati hali ham noma’lum qolmoqda. Sovet tarixshunosligi o‘z g‘alabalarini bo‘rttirib, mag‘lubiyat va noxush voqealarni esa yashirib kelgan. Masalan, Ikkinchi jahon urushi (Buyuk Vatan urushi)dagi insoniy yo‘qotishlar soni ko‘p yillar davomida kamaytirilgan holda ko‘rsatildi. Shu bilan birga, urushdan keyingi ocharchilik, deportatsiyalar, qishloq xo‘jaligidagi majburiy mehnatlar haqida deyarli og‘iz ochilmagan. O‘zbekiston tarixiga oid mavzular — xususan, Amir Temur, Alisher Navoiy, Xiva va Buxoro xonliklari, islom madaniyati — Sovet tarixshunoslida ko‘pincha sinfiy yondashuvda tahlil qilindi. Temur “zolim sarkarda”, diniy meros “reaksion kuch” sifatida ko‘rsatilgan. Bu esa milliy ongi shakllantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bugun biz tarixga yangicha — milliy manfaatlar va ilmiy asoslar orqali qarashimiz zarur.

Sovet Ittifoqida tarixshunoslik fan emas, balki mafkura vositasi sifatida qaralgan. Tarixiy tadqiqotlar kommunistik partiya ko‘rsatmalariga moslab olib borilgan, tarixchi olimlar esa mustaqil fikr yuritishdan ko‘ra, mavjud siyosiy tizimni tasdiqlashga majbur bo‘lganlar. Lenin, Stalin va boshqa sovet yetakchilarining faoliyati “senzura” bilan yozilib, ularning qaror va siyosatlari doimiy ravishda ijobiy tarzda talqin qilingan. Sovet tarixshunoslida ko‘plab tarixiy shaxslar qasddan unutildi yoki ularning faoliyati soxtalashtirildi. Masalan, mustaqillik g‘oyasini ilgari surgan milliy ziyolilar “xalq dushmanlari” deb e’lon qilinib, ularning xizmatlari kamsitilgan. 1937–1938-yillardagi qatag‘onlar, millionlab begunoh insonlarning hayotiga zomin bo‘lgan voqealar esa “zaruriy siyosiy chora” sifatida ko‘rsatildi yoki butunlay yashirildi. Sovet davrida tarixiy hujjatlar, arxiv materiallari qat’iy nazorat ostida saqlangan. Tadqiqotchilar faqat ruxsat berilgan manbalar bilan ishlashi mumkin bo‘lgan. Bu esa tarixning to‘laqonli va haqqoniy o‘rganilishini imkonsiz qilgan. Ko‘plab arxivlar sir saqlangan, ba’zilari esa umuman yo‘q qilingan.

O‘zbekiston tarixiga oid ko‘plab faktlar Sovet mafkurusida qayta yozilgan. Amir Temur, jadidlar harakati, Buxoro va Xiva xonliklari kabi tarixiy mavzular biryoqlama yoritilgan yoki ularning ijobiy jihatlari inkor etilgan. Sovet davlatchiligi O‘zbekistonni “orqada qolgan”, “bosqinchi kuchlardan ozod qilingan” hudud sifatida talqin qilgan, ammo bu “ozodlik” aslida mustamlakachilik shakli edi.

### Xulosa

Sovet davri tarixshunosligi ko‘plab haqiqatlarning yashirilishiga, tarixning siyosiy maqsadlarda ishlatilishiga olib kelgan. Bugungi mustaqil O‘zbekiston tarixchilari oldida muhim vazifa turibdi — bu ham bo‘lsa, tarixiy haqiqatni yuzaga chiqarish, arxivlar bilan erkin ishslash, xalqimiz tarixidagi qorong‘u sahifalarni oydinlashtirishdir. Faqat shundagina biz o‘z tariximizni to‘g‘ri anglab, kelajak avlodga haqqoniy meros qoldira olamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Turkiston chor mustamlakachiliği davrida. 1- qism. T. “Sharq”, 2000.
2. O‘zbekiston Sovet mustamlakachiliği davrida. 2 - qism. T. “Sharq”, 2000.
3. S.A.Toshtemirov “Tarixshunoslik” Toshkent-2022. 267-b
4. Азamat Зиё. Узбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, 2000. Аскаров
5. А.А. Узбек халкининг этногенези ва этник тарихи. - Тошкент: Университет, 2007.
- Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. - Л., 1927.
6. Бойназаров Ф.Йрта Осиёнинг антик даври. Т., уқитувчи 1991.